



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Usarov Jabbor Eshbekovich<sup>1</sup>,  
Eshnaev Nortoji Jumaevich<sup>2</sup>,  
Bozorov Xasan Nematovich<sup>3</sup>

<sup>1</sup> p.f.d.(DSc)Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti dekan  
usarov.jabbor@gmail.com.

<sup>2</sup>Chirchiq davlat pedagogika instituti "Psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi. turakulov.buri@gmail.com

<sup>3</sup>Chirchiq davlat pedagogika instituti "Psixologiya" kafedrasida magistri  
gauypova.saodat@gmail.com

## MASOFAVIY O'QITISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada masofaviy o'qitish tizimining yuzaga kelish tarixi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, xorij mamlakatlari tajribasi, statistik ma'lumotlar tahlili, ta'lim tizimida o'qitishdagi imkoniyati hamda amalga oshirish mexanizmi yuzasidan fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, masofaviy o'qitish, integratsiya, telekommunikatsiya, axborot texnologiya, resurs, maxsus maktab, an'anaviy ta'lim, dastur, mezon, ishlab chiqish, pedagogika.

**Annotatsiya:** V state rassmatrivayutsya istoriya distansionnogo obucheniya, yego rol v obuestve, opit zarubejnix stran, analiz statisticheskix dannix, vozmojnost obucheniya v sisteme obrazovaniya i mexanizm yego realizatsii.

**Klyuchevie slova:** obrazovanie, distansionnoe obuchenie, integratsiya, telekommunikatsii, informatsionnie texnologii, resurs, spesshkola, traditsionnoe obrazovanie, programma, kriterii, razvitie, pedagogika.

**Annotation:** This article discusses the history of distance learning, its role in society, the experience of foreign countries, the analysis of statistical data, the possibility of teaching in the education system and the mechanism of its implementation.

**Keywords:** *education, distance learning, integration, telecommunications, information technology, resource, special school, traditional education, program, criteria, development, pedagogy.*

**Kirish (Introduction).** Dunyo hamjamiyatining barcha sohalarida o‘zaro integratsiya jarayoni faollashib borayotganligi, o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Albatta bu jarayonning bir sohaga salbiy ta‘sirini kuzatsak, boshqa bir sohada rivojlantiruvchi omillarining ijobiy jihatlari namoyon bo‘lmoqda. Jumladan ushbu ijobiy jihatlardan biri ta‘lim sohasida namoyon bo‘lib, zamonaviy o‘qitish tizimining yangi imkoniyatlarini olib kirmoqda. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida masofaviy o‘quv sxemalari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishga talab oritib bormoqda. Masofaviy o‘qitishni tashkil etish nafaqat oliy o‘quv yurtlarida, balki o‘rta maxsus ta‘lim tizimi, o‘rta va maxsus maktablar, kasb-hunar o‘quv markazlari, malaka oshirish markazlari va konsalting kompaniyalari hamda boshqa sohalarda kadrlarni tayyorlashda keng joriy etilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimini o‘rganar ekanmiz, ularda ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonini mehnat bozori talablari va ish beruvchilar talabi asosida tashkil etiladi va muvofiqlashtiradi. Ta‘lim muassasasi bitiruvchisidan nafaqat kasbiy professionallik, balki informatsion texnologiya imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalana olish kompetentligi ham talab etiladi. Bu jarayon albatta, bo‘lajak soha mutaxassislarini kasbga oid yangi bilimlar bilan o‘zini–o‘zi rivojlantirib borishi hamda qisqa vaqt ichida o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Ya‘ni masofaviy o‘qitish ulkan ma‘lumotlar bazasidan zarur ma‘lumotlarni topish, uni tahlil etish, ma‘lum tizimga keltirish, fikr va g‘oyalarni rivojlantirish, loyihalash hamda aql va tafakkurni kengaytirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, masofaviy o‘qitish bugungi pandemiya sharoitining majburiy zarurati sifatida butun dunyoda namoyon bo‘lgan bo‘lsada, ta‘limning mustaqil shakliga ustuvorlik berish, ta‘lim muassasalari o‘quv auditoriyalari, moddiy-texnik bazalarining ichki imkoniyatlari, ta‘lim oluvchilarning yoshi turlicha ekanligi va ishdan ajralmagan holda ta‘lim olish zarurati, ta‘lim oluvchilarning tanlagan ta‘lim muassasalaridan juda uzoqligi kabi bar qator omillar rivojlangan mamlakatlarning bu borada ma‘lum bir tarixiy yo‘llarni bosib o‘tgan holda o‘ziga xos tajribalarni o‘zlashtirganligin ko‘rish mumkin. Masofadan o‘qitish texnologiyalari rivojlangan mamlakatlarda an‘anaviy ta‘limning asosiy tamoyillariga asoslanib, innovasion texnologiyalardan keng foydalanadi.

1969 yilda Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetining (UKOU) tashkil etilishi masofaviy ta‘lim tizimini rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bugungi kunda ushbu oliygohda dunyoning turli mamlakatlardan

200 ming talaba tahsil olmoqda. Buyuk Britaniya o'qitishni tashkil etish borasida axborot texnologiyalar imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalanish borasida hatto Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan oldinda. Ushbu mamlakatda elektron (masofaviy) ta'lim tizimini tashkil etishda nafaqat o'zining ichki mehnat bozorini raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash balki, AQSh, Avstraliya va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mehnat bozorga ham yo'naltirilganligi bilan ahamiyatli. O'zining o'n yillik faoliyati davomida dunyodagi birinchi masofaviy o'qitish universiteti hozirgi kungacha elektron ta'lim sohasida jahon miqyosida etakchi bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** XIX asning 70 yillarida Amerika Qo'shma Shtatlarda ham masofaviy o'qitishni tashkil qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilib, 1874 yilda Illinoys universiteti pochta orqali buyurtma berish bo'yicha o'quv dasturini taklif qildi. Qo'shma Shtatlardagi masofaviy ta'lim asoschisi Uilyam Reynni Xarper 1892 yilda Chikago universitetida masofaviy o'qitishni tashkil etgan bo'lsa, 1906 yilda Viskonsin universiteti pochta orqali o'qitish yo'lga qo'ydi [13].

Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida masofadan o'qitishga bo'lgan qiziqishning paydo bo'lishiga, asosan, Rossiya ta'lim muassasalarida bu borada olib borilgan amaliy ishlar asos bo'lib xizmat qildi. Rossiyada 1907 yilda Naxodkadagi Dengiz maktabida va 1908 yilda A.M.Shanyavskiy nomidagi Moskva Xalq Universitetida masofadan o'qitish texnologiyasining ma'lum elementlari shakllangan bo'lsa, 1917 yildan boshlab masofaviy ta'lim keng rivojlandi. U turli darajadagi turli xil kurslarni taklif qilib, masofaviy ta'limning maxsus, konsalting modeli (sirtqi bo'lim) ishlab chiqilgan. XX asning 60 yillariga kelib 11 ta sirtqi universitetlar va an'anaviy oliy o'quv yurtlarida ko'plab sirtqi fakultetlar mavjud bo'lib, ikkinchi jahon urushidan keyin Markaziy va Sharqiy Evropaning ayrim mamlakatlari Rossiya tajribasini o'zlashtirdi.

Masofadan o'qitish borasida Rossiya tajribasi Byuuk Britaniya tajribasi kabi mukammal emas. Tadqiqotchi A.Solovov "Masofaviy ta'lim: texnologiyalar va maqsadli guruhlar" maqolasida masofaviy o'qitish Rossiyaning mintaqalari tomonidan etarli darajada qo'llanilmayotganligini ta'kidlaydi, chunki masofaviy o'qitishning o'quv-uslubiy ta'minoti yetarli darajasida emas[15].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri bo'lgan Fransiyada 1939 yilda masofadan o'qitish milliy markazi tashkil etilib, maktabga bora olmaydigan imkoniyati cheklangan (ijtimoiy, iqtisodiy, sog'lig'i yuzasidan v.b.) bolalarni pochta orqali o'qitish tizimi joriy etilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu milliy markaz Evropadagi eng yirik masofaviy ta'lim muassasasiga aylandi. Uning tarkibiga ma'lum bir faoliyat sohasiga ixtisoslashgan 8 ta institut kiradi. Xodimlarning umumiy soni 8000 kishidan oshadi, 3000 dan ortiq o'quv kurslari turli mavzularni qamrab oladi. E'tiborli jihati shundaki dunyoning 120

mamlakatidan 350 mingdan ziyod talabalar sun'iy yo'ldosh televideniesi, internet va elektron pochta, zamonaviy axborot va ta'lim texnologiyalari hamda ta'lim dasturlari orqali bilim olishadi.

XX asrning 70-80 yillarida Evropa va Osiyoning qator mamlakatlarida, jumldan, Ispaniya (1972), Pokiston (1974), Tailand (1978), Koreya (1982), Indoneziya (1984), Hindiston (1985), Gollandiya (1985) oliy o'quv yurtlarida masofadan o'qitish tizimi keng joriy etildi. Xitoyda Madaniy inqilob davrida yopilgan an'anaviy oliy o'quv yurtlari o'rnida 1979 yilda Milliy radio va televidenie universitetlari tarmog'i tashkil etilgan bo'lib, televidenie va boshqa masofadan onlayn uzatish moslamalari yordamida har qanday yoshdagi odamlar uchun boshlang'ich bosqichdan to oliy o'quv yurtlariga qadar o'qitishning barcha darajalarini tashkil etish tizimi joriy etilgan.

E'tiborli jihati shundaki, masofaviy ta'lim mamlakat uchun ijtimoiy buyurtmaning tarkibiy qismi bo'lib, asosiy maqsad fuqarolarni baynalmillashtirish jarayonlarini tezlashtirish va oshirishga qaratilgandir.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'lim tizimini jadal rivojlanishining asosiy sababi bu integral qobiliyat bo'lib, unda an'anaviy va masofaviy ta'limning uzviyligi, muvofiqligi hamda bir-birini to'ldiruvchi samarali jihatlari uyg'unligini ta'minlovchi zamonaviy ta'lim shakli hisoblanadi. Ilmiy-ma'rifiy makonda insoniyat tomonidan to'plangan butun dunyo axborot manbai va resurslarini har bir ta'lim muassasasida birlashtirishning iloji yo'q. Masofaviy ta'limning oldida turgan asosiy vazifa sayyoramizning har bir geografik nuqtasidan telekommunikasiya va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o'quv jarayoni manba va resurslariga kirishni ta'minlashdir. Masofaviy o'qitish turli hududlarda tarqatiladigan axborot resurslarini faollashtiradi. Bu masofaviy ta'limni rivojlantirish zarurligining konseptual asosidir.

"Texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonining uslublari va shakllarini, balki ta'lim tizimining o'zini ham o'zgartiradi" [14].

Shu nuqtai nazarda kelib chiqqan holda, masofadan o'qitish bo'yicha quyidagi ilmiy qarshlarga e'tibor qaratdik:

- mutaxassislarining masofaviy o'qitishni afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida muvozanatsiz qarashlarining mavjudligi;
- masofaviy o'qitishning oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati ustuvor etib belgilanmaganligi (raqobat bardosh kadrlar tayoyrlash masalasida tutgan o'rni aniqlanmaganligi);
- masofaviy o'qitish shakllari va talabalar sonining ko'payishiga qaramay, masofaviy ta'lim sifatini oshirish uzoq vaqt talab etadigan jarayon ekanligi;
- masofadan o'qitish dasturlarining oliy ta'lim tizimidagi o'rni DTS va jahon standartlari talablariga muvofiq o'zgarishi kerak;

- masofadan o‘qitish dasturlariga qo‘yilgan talab an’anaviy ta’lim dasturlaridan tubda farq qilishi va aniq mezonni ishlab chiqish;
- masofaviy dasturlarning sifatini aniqlash yuzasidan maxsus pedagogika amaliy (tavsiya va ko‘rsatma) dasturni yaratish;
- masofaviy o‘qitish dasturlarining xususiyatlarini aniqlash;
- masofaviy o‘qitishning afzalliklari va kamchiliklari, hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda masofaviy ta’limda kunduzgi ta’limning audio va video, bosma materiallar kabi boshqa resurslaridan foydalanish yuzasidan metodologik ko‘rsatma ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Zero, bugungi globallashtirish davrida fan-texnika taraqqiyoti, ayniqsa axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ulkan imkoniyatlari, ma’lumotlarning tez eskirishi nafaqat ta’lim oluvchilarning balki mazkur ijtimoiy hayotda faoliyat yuritayotgan har bir jamiyat a’zosi uchun tez moslashuvchanlik (mobilizatsiya) ko‘nikmalarini talab etadi. Bu masofaviy ta’lim shaklining asosiy tamoyillaridan birdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bugaychuk K. L. Massovie otkritie distantsionnie kursi: istoriya, tipologiya, perspektivi // Visshee obrazovanie v Rossii. – 2013. – №3. – S. 148–155.
2. Distantionnoe obuchenie v Moskovskom gosudarstvennom universitete imeni Lomonosova [Elektronniy resurs]. – URL: <http://www.msu.ru/study/dist-learn.html> (data obraçeniya 15.04.2015)
3. Distantionnoe obuchenie v natsionalnom issledovatel’skom texnologicheskom universitete «MISIS» [Elektronniy resurs]. – URL: <http://fdisto.misis.ru/> (data obraçeniya 15.04.2015)
4. Distantionnoe obuchenie v Natsionalnom issledovatel’skom universitete «Visshaya shkola ekonomiki» [Elektronniy resurs]. – URL: <http://busedu.hse.ru/distanob> (data obraçeniya 15.04.2015)
5. Distantionnoe obuchenie v Rossiyskom gosudarstvennom gumanitarnom universitete [Elektronniy resurs]. – URL: <http://urrdo.rgggu.ru/> (data obraçeniya 15.04.2015)
6. Dela Pena-Bandalariya M. M. Elektronnoe obrazovanie na Filippinax: trendi, napravleniya i vizovi // Distantionnoe i virtualnoe obuchenie. – 2010. – № 2. – Daydžest zarubežnix izdaniy.
7. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education’s Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.

8. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(1), 272-274.
9. Maratov Temur Gayrat ugli, Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology, *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 2020; 7(8). 16-22. <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/07/full-paper-scientific-theoretical-problems-of-perfect-human-category-in-the-psychology.pdf>
10. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 9(3), 2677-2684.
11. N.Ж. Eshnaev, T. G'. Maratov, G. Mirzaraximova. O'zbek milliy kino sanati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari. *Oriental Art and Culture* 2020. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-milliy-kino-sanati-va-madaniyatida-psihoprofilaktik-hizmat-tizimini-zhoriy-etish-masalalari>
12. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. *JCR*. 2020; 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
13. Sistema distantsionnogo obucheniya MIEE [Elektronniy resurs]. Kod dostupa: [www.edu.mieen.ru/moodle/login/index.php](http://www.edu.mieen.ru/moodle/login/index.php).
14. Solovov A. «Elektronnoe obuchenie – novaya texnologiya ili novaya paradigma?» // *Visshie obrazovanie v Rossii*. – 2006. – №11. – S. 104–113.
15. Solovov A. *Distantsionnoe obuchenie: texnologii i tselevie gruppi* // *Visshie obrazovanie v Rossii*. – 2006. – № 7. – S. 119–125.
16. Turakulov Buri Norboevich. Analysis of psychological theory of emotional intelligence. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 2020; 8(3). 99-104. [http://www.idpublications.org / wpcontent/ uploads /2020/03/full-paper-analysis-of-psychological-theory-of-emotional-intelligence.pdf](http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/03/full-paper-analysis-of-psychological-theory-of-emotional-intelligence.pdf)
17. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02), 1337-1346.
18. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna, “DEFECTS IN SCIENTIFIC RESEARCH OF THE PROBLEMS OF SPIRITUAL AND MORAL CRISIS AND ITS SOLUTION”, *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. 8, p. 6, Nov. 2020.



19. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Kodirov Ikrom Davronovich, “PROBLEMS OF FORMATION OF LEARNING MOTIVES IN PUPILS”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6, Nov. 2020.